

**BUXGALTERIYA HISOBIAVTOMATLASHGANDASTURIYA TA'MINOTLARIGASUN'IYINTEL
EKTNIQO'LLASH**

Ziyodullobek Bahodirov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi talabasi*

Ubaydullayeva Shohista

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
"O'simliklar va qishloq xo'jaligi
mahsulotlari karantini yo'nalishi" talabasi*

Bobur Xidirov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutori*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Buxgalteriya hisobi avtomatlashgan dasturiy ta'minotlariga sun'iy intellektni qo'llash, natija buxgalteriya hisobini yuritishga yengillik berishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *UZASBO, 1C, 1UZ, AI, ChatGPT*

APPLYING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TO AUTOMATED ACCOUNTING SOFTWARE

Ziyodullobek Bahodirov

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Student of "Accounting and Audit" department*

Ubaidullayeva Shahista

*Termiz Institute of Agrotechnologies and Innovative Development
"Plants and agriculture
product quarantine direction" student*

Bobur Khidirov

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Tutor of the Faculty of Entrepreneurship and Management*

Abstract: *This article provides information about the application of artificial intelligence to automated accounting software, the result of which will make accounting easier.*

Keywords: *UZASBO, 1C, 1UZ, AI, ChatGPT*

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda yashash bizni to'xtab qolmaslikka undaydi. XXII asr texnologiyalar asri hisoblanadi. Texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yuqori bilim bo'lishi bizga o'qishda, ishda, biznesda juda qo'l keladi. Barcha sohalar kabi iqtisodiyotda ham raqamli texnologiyalar qo'llanmoqda.

Buxgalteriya hisobida esa zamonaviy dasturiy taminotlardan foydalanilmoqda. O'zbekistonda qo'llanilayotgan dasturiy ta'minotlar UZASBO, 1C, 1UZ kabilar bunga misol hisoblanadi.

Sun'iy ong, sun'iy intellekt yoki sun'iy idrok (inglizcha: Artificial intelligence; odatda, AI sifatida ham qisqartiriladi) — insonlar yoki hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan tabiiy ongdan farqli o'laroq, mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan onmdir. Yetakchi sun'iy ong darslik kitoblari bu sohani „ongli agentlar“ni o'rganish deya ta'riflaydi: o'z muhitini fahmlaydigan va maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatini maksimal darajada oshiradigan amallarni amalga oshiruvchi har qanday sistema. Xalq orasida “sun'iy ong” atamasi ko'pincha “o'rganish” va “muammolarni yechish” kabi inson idroki bilan bog'laydigan “kognitiv” funksiyalarni taqlid qiladigan mashinalarni tasvirlashda ishlatiladi, biroq bu ta'rifni ko'pchilik sun'iy ong tadqiqotchilari rad etishadi. Barcha sohalar sun'iy intellekt orqali rivojlanmoqda.

ChatGPT (inglizcha: Generative Pre-trained Transformer) — OpenAI tomonidan 2022-yil noyabr oyida ishga tushirilgan chatbot. U OpenAI ning GPT-3 katta til modellari oilasi ustiga qurilgan va nazorat ostidagi mustahkamlovchi o'rganish texnikasi bilan yaxshilangan.

ChatGPT prototip sifatida 2022-yil 30-noyabrda ishga tushirilgan, hamda ko'plab bilim sohalarida batafsil javoblari va aniq javoblari bilan tezda omma e'tiborni tortdi. Uning notekis faktik aniqligi muhim kamchilik sifatida qaraladi. ChatGPT chiqqandan keyin OpenAI 29 milliard dollarga baholangani xabar qilingan. Amerika AI tadqiqot laboratoriyasi OpenAIChatGPT va DALL-E 2 ortida turgan , ba'zi qiziqarli e'lonlar qildi. U ChatGPT va Whisper nutqni aniqlash modeli uchun ishlab chiquvchi API-ni ishga tushiradi, sun'iy intellektni yaxshilash uchun o'z ma'lumotlaridan foydalanishdan voz kechish imkonini berish uchun xizmat shartlarini ishlab chiquvchilar foydasiga o'zgartiradi va 30 kunlik ma'lumotlarni saqlash siyosatini qo'shadi. Yangi ChatGPT API mashhur chatbot bilan bir xil AI modelidan (gpt-3.5-turbo) foydalanadi, shuning uchun ishlab chiquvchilar o'z ilovalariga asosiy va o'zgartirilgan versiyalarni qo'shishlari mumkin.

Buxgalteriya hisobi avtomatlashgan dasturiy ta'minotlarida su'niy intellektlarni qo'llash mumkin. “Bloomberg” tahlilchilarining fikricha, ChatGPT boshqa neyron tarmoqlardan turli sohalardagi vazifalarni bajarish qobiliyati bilan ajralib turadi. Neyron tarmoq, boshqa narsalar qatorida, asosiy dastur kodini chiqarishi, moliyaviy tahlillar, texnik maqolalar yoki ilmiy tushunchalar xulosalari, prognozlar, shaxsiy maslahatlar va har qanday savollarga axloqiy javoblar yaratishi mumkin. Bundan tashqari, u foydalanuvchi bilan suhbatning tafsilotlarini eslab qoladi va bahsli mavzulardan qochadi. Nihoyat, chat-bot javoblari yetakchi savollar bilan sozlanishi mumkin. Kelajakda “OpenAI” ChatGPT'ni amaliy

dasturlash interfeysi sifatida taqdim etishni rejalashtirmoqda, shunda ishlab chiquvchilar chat-botni veb-saytlari yoki ilovalariga joylashtirishlari mumkin.

Misol uchun suniy intellektga siz xoxlagan ma'lumotni so'raysiz, u sizga ma'lumotni beradi. Bunda siz hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. MS Excel dasturi orqali ishlashda funktsiya yasash kerak bo'ldi va siz chat gpt ga murojat qilasiz. U sizga tayyor funktsiya yasab beradi. Agar sizga buxgalteriya balansi tuzish kerak bo'lsa ham foydalansa bo'ladi. Bugungi kunda ushbu suniy intellektni dasturiy ta'minotga integratsiya qilish orqali foydalanish juda foyda beradi. 1C buxgalteriya dasturiy ta'minotida buxgalteriya yuritishda dastlab bizga baza o'rnatilishi kerak lekin bizning ishlab chiqarish uchun baza yaratish kerak. Ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish maxsulotlari bir biridan farq qilganidek baza yaratish ham turlicha bo'ladi. Integratsiya bo'lgan dasturiy ta'minotga baza yaratish haqida buyruq beriladi va suniy intellekt baza yaratadi. Agar integratsiya boshqa manbalarga integratsiya qilinsa, masalan soliq organlari oy yakuni bo'yicha hisobot so'rasa, ChatGPT orqali Dasturiy taminot bazasidagi ma'lumotlar asosida hisobot tuzib jo'natadi. Inson omili faqat nazorat uchun kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda dasturiy ta'minotni takomillashtirishda va buxgalteriya hisobining yuritishni yengillashtirishda suniy intellektni qo'llash eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „ChatGPT — Release Notes“. 8-fevral 2023-yilda asl nusxadan arxivlandi. 8-fevral 2023-yil.
2. Roose. „The Brilliance and Weirdness of ChatGPT“ (en-US) (HTML). New York Times (5-dekabr 2022-yil). — „Like those tools, ChatGPT — which stands for “generative pre-trained transformer” — landed with a splash.“. 26-dekabr 2022-yil.
3. Quinn, Joanne. Dive into deep learning : tools for engagement, Thousand Oaks, California, 2020 — 551 bet. ISBN 9781544361376. 10-yanvar 2023-yil
4. “Bloomberg” ning internet nashri
5. <https://openai.com> rasmiy sahifa